



# O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

2019-yilning yanvar-may oylarida  
QURILISH ISHLARI



**Jami qurilish ishlari  
hajmi**

**26 691,2 mlrd.so'm**

**O'tgan yilning mos  
davriga nisbatan**

**109,1 %**



**Nodavlat mulkchiligidagi  
tashkilotlar**

**25 271,7 mlrd.so'm**

**Davlat mulkchiligidagi  
tashkilotlar**

**1 419,5 mlrd.so'm**

**6 690  
mlrd.  
so'm**

**Yirik pudrat  
tashkilotlari**

**14 887  
mlrd.  
so'm**

**Kichik  
korxonalar va  
mikrofirmalar**

**5 114,2  
mlrd.  
so'm**

**Norasmiy  
sektor**



# Investitsiya va qurilish statistikasi



Joriy yilning yanvar-may oylarida O'zbekiston Respublikasida jami 26 691,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,1 % ni tashkil etdi.

Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 6 690 mlrd. so'mni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 110,4 % bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan 0,3 % ga ko'paygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 55,8 %i to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,3 %ni tashkil etgan holda 14 887 mlrd.so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,4 % punktga kamayib, 19,1 % ni tashkil etdi va 5 114,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda 106,7 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Samarqand (hududdagi jami qurilish hajmining 1,5 %i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 136,2 %), Jizzax (mos ravishda, 1,7 % va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 179,2 %) va Sirdaryo viloyatlarida (mos ravishda, 2,5 % va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,5 marta ko'paygan) kuzatildi.

Binolar va inshootlar qurilishi bo'yicha Xorazm (jami hajmdan 80 %), Jizzax (78 %) va Farg'ona (76%) viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Fuqarolik obyektlari qurilishida Surxondaryo viloyati (24 %), Sirdaryo (19 %) va Toshkent shahrida (17 %) yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan bo'lsa, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari bo'yicha Namangan va Andijon (20 %) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (19 %) yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi




# INVESTITSIYA VA QURILISH STATISTIKASI

## Jami qurilish ishlaridagi ulushi % da



## O'tgan yilning mos davriga nisbatan % da





# Investitsiya va qurilish statistikasi

**77,0 %**

Shuni ta'kidlash lozimki, joriy davrda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 77,0 %i yoki 20 561,6 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy

**109,0 %**

Yirik qurilish tashkilotlari yangi qurilish hisobidan 5 999,2 mlrd. so'm bajarilib, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,0 % tashkil etdi.

**107,2 %**

Norasmiy sektor hissasiga 4 519, mlrd. so'm yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,2 % yangi qurilish ishlariga to'g'ri keldi.

**109,1 %**

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 10 043,4 mlrd. so'm, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,1 % yangi qurilish ishlari bo'yicha bajarilgan.


**12,5 %**

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari



**13,5 %**

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari %da**



**74,0 %**

Binolar va inshootlar qurish bo'yicha qurilish ishlari






# Investitsiya va qurilish statistikasi

## Binolar va inshootlar qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 23,6 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,3 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 51,6 % (0,9 % punktga ko'payish) va norasmiy sektorning ulushi 25,4 %ni (0,4 % punktga ko'payish) tashkiletdi.






# Investitsiya va qurilish statistikasi

## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 41,3 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 8,9 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 55,6 % (8,6 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 3,1 %ni (0,3 % punktga kamayish) tashkil etdi.






# Investitsiya va qurilish statistikasi

## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,9 % punktga ko'paydi va 18,0 % ni tashkil etdi. Qolgan 82,0 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,9 % punktga kamaydi.








# Investitsiya va qurilish statistikasi

## 2019-yil yanvar-may oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari

|                                 | Jami qurilish ishlari hajmi, mlrd. so`m | Jamiga nisbatan, % da | O`shish sur`ati, % da | Jamidan yangi qurilish ishlari hajmi, mlrd. so`m |
|---------------------------------|---|-----------------------|-----------------------|--|
| <b>O`zbekiston Respublikasi</b> | <b>26691,2</b>                          | <b>100,0</b>          | <b>109,1</b>          | <b>20561,6</b>                                   |
| Qoraqalpog`iston Respublikasi   | 1300,5                                  | 4,9                   | 109,7                 | 916,7  |
| <i>viloyatlar:</i>              |   |                       |                       |  |
| Andijon                         | 1534,3                                  | 5,7                   | 106,6                 | 1035,7   |
| Buxoro                          | 1607,7                                  | 6,0                   | 110,3                 | 995,7  |
| Jizzax                          | 897,1                                   | 3,4                   | 109,3                 | 726,6  |
| Qashqadaryo                     | 1882,0                                  | 7,1                   | 104,2                 | 1360,8   |
| Navoiy                          | 1195,0                                  | 4,5                   | 116,1                 | 855,6  |
| Namangan                        | 1069,7                                  | 4,0                   | 107,6                 | 778,5  |
| Samarqand                       | 1599,1                                  | 6,0                   | 105,4                 | 1268,1   |
| Surxondaryo                     | 1460,5                                  | 5,5                   | 114,5                 | 1228,7   |
| Sirdaryo                        | 556,0                                   | 2,1                   | 107,1                 | 357,5  |
| Toshkent                        | 1416,0                                  | 5,3                   | 108,6                 | 1044,3   |
| Farg`ona                        | 1610,5                                  | 6,0                   | 109,4                 | 1104,8   |
| Xorazm                          | 942,1                                   | 3,5                   | 105,6                 | 751,6  |
| Toshkent sh.                    | 6129,8                                  | 23,0                  | 115,4                 | 4646,0   |

## Jami qurilish ishlarida hududlarning ulushi (jamiga nisbatan % da)



- Qoraqalpog'iston respublikasi
- Buxoro
- Navoiy
- Surxondaryo
- Farg'ona
- Taqsimlanmagan hajm
- Andijon
- Jizzax
- Qashqadaryo
- Namangan
- Samarqand
- Sirdaryo
- Toshkent
- Xorazm
- Toshkent sh

Hududlar bo'yicha qurilish ishlari tarkibida Toshkent shahri qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar Respublika bo'yicha jami hajmning **23,0 %** ini tashkil etdi. Bu **6 129,8** mlrd. so'm qurilish ishlari demakdir. Bunday katta hajmdagi qurilish ishlari Respublika bo'yicha eng yirik qurilish tashkilotlarining hamda ko'plab kichik qurilish korxonalarini va mikrofirmalarni Toshkent shahrida joylashgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga mazkur hududda olib borilayotgan keng ko'lami qurilish ishlari, jumladan, metro liniyalari qurilishi, "Tashkent City" xalqaro ishbiarmonlik markazi qurilishi, davlat dasturlari doirasida va boshqa sotish uchun mo'ljallangan ko'plab turar-joylarning qurilishi jadal olib borilayotganligi mazkur hududdagi qurilish ishlari hajmining katta bo'lishiga sabab bo'lmoqda.



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o`shish sur`ati

Navoiy viloyatida (116,1 %) kuzatildi:

- "Navoiydavmaxsuspudrat" UK tomonidan kanallar va kollektorlarni yangi qurilishi hamda rekonstruksiyasi;

- "Navoiy ko`priklardan foydalanish" UK tomonidan avtomagistral yo`llarini joriy ta`mirlashishlari;

- "Karmandavsuvmaxsuspudrat" UK tomonida kollektorlar qurilish ishlari olib borilmoqda;

- Toshkent shahri bo'yicha "Yangi Zamon Bino" MCHJ tomonidan ijtimoiy joylari qurilishi,

**O'ZTEMIRYO'LQURILISHMONTAJ**

unitar korxonasi tomonidan Toshkent shahridagi navro'z parki qurilishi hamda TREST-12 mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan Islom markazi barpo etilishi, "O'zbekfilm" binosining rekonstruksiyasi, MOCTOOTPЯД-67 tomonidan ko`prik va Yunusobod yo'li metro liniyasi qurilishlari.

- Surxondaryo viloyati bo'yicha "QIZIRIQDAVSUVMAXSUSPUDRAT"

davlat unitar korxonasi tomonidan Qiziriq tumanidagi Sherabod kanali tizimini rekonstruksiyasi, "TO'PALANG-SUV-GES- QURILISH" ma'suliyati cheklangan jamiyati To'palang suv ombori qurilish ishlari bajarilmoqda.

## Hududlar bo`yicha qurilish ishlarining o`shish sur`atlari (o`tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)

